

Toshova Shaxnoza Tojinorovna

Termiz Iqtisodiyot va servis universiteti
pedagogika kafedrası o'qituvchisi
shaxnozatoshova11@gmail.com

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA KITOBXONLIKKA MEHR UYG'OTISH ORQALI SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya. Mazkur maqolada Jamiyat, millatning rivojlanishi, bilimli, ma'naviyatli va ma'rifatli yoshlarining jamiyat yuksalishida o'rni hamda yoshlarni barkamol etib tarbiyalovchi asosiy omillardan biri mutola qilishdir. Bizni yerdan ko'kka ko'taradigan, barkamollik sari yetaklaydigan, insonlar qalbiga yorug'lik va ilqlik kiritadigan, oq bilan qora, yaxshilik va yomonlik, vayronkorlik bilan bunyodkorlikning farqini ongli ravishda anglatishga yordam beradigan, insoniyat tomonidan yaratilgan eng noyob kashfiyot ham bu-kitob ekanligi haqida so'z borgan.

Kalit so'zlar: kitobxonlik, maktabgacha ta'lim, sog'lom turmush tarzi, tarbiyalanuvchi, shakllantirish, rivojlantirish, pedagog, ta'lim-tarbiya.

ФОРМИРОВАНИЕ ЗДОРОВОГО ОБРАЗА ЖИЗНИ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНИКА ПУТЕМ ПРОБУЖДЕНИЯ ЛЮБВИ К БИБЛИОТЕКЕ

Аннотация. В данной статье рассматриваются развитие общества, нации, роль образованной, духовной и просвещенной молодежи в развитии общества, а также один из основных факторов, воспитывающих молодежь до совершенства. Эта книга – уникальнейшее открытие, созданное человечеством, которое поднимает нас от земли к небу, ведет к совершенству, несет свет и тепло в сердца людей, помогает осознанно понять разницу между белым и черным, добром и злом, разрушением и творчеством. Говорили, что

Ключевые слова: чтение, дошкольное образование, здоровый образ жизни, школьник, формирование, развитие, педагог, образование.

FORMING A HEALTHY LIFESTYLE IN PRE-SCHOOL CHILDREN BY AWAKENING A LOVE FOR THE LIBRARY

Abstract. In this article, the development of society, the nation, the role of educated, spiritual and enlightened youth in the development of society, and one of the main factors that educate young people to perfection, are discussed. This book is the most unique discovery created by mankind, which lifts us from the earth to the sky, leads us to perfection, brings light and warmth to the hearts of people, helps us to consciously understand the difference between white and black, good and evil, destruction and creativity. It was said that.

Key words: reading, preschool education, healthy lifestyle, student, formation, development, pedagogy, education.

Kirish. O'tgan davr mobaynida mamlakatimizda o'sib borayotgan avlodni sog'lom va har tomonlama etuk voyaga etkazish, ta'lim-tarbiya jarayoniga samarali ta'lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etishga qaratilgan maktabgacha ta'limning samarali tizimini tashkil etish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Maktabgacha ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish uchun yaratilgan qulay shart-sharoitlar nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari sonini yanada oshirish va ular ko'rsatadigan xizmatlar turlarini kengaytirish uchun mustahkam poydevor bo'ldi. Shu bilan birga, olib borilgan tahlil, bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrovini ta'minlash, maktabgacha ta'lim tashkilotlarini zamonaviy o'quv-metodik

materiallar va badiiy adabiyotlar bilan to'ldirish, sohaga malakali pedagog va boshqaruv kadrlarini jalb qilish masalalarini hal etish zarurligini ko'rsatmoqda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2020 — 2025-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash milliy dasturini tasdiqlash to'g'risida Qarorida "Aholining kitobxonlik darajasi va kitobga qiziqishini tizimli o'rganib borish, kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan loyiha va tanlovlarni tashkil etish, kutubxonachi kadrlar salohiyatini oshirish" hamda "2024-2025-yillarda yoshlarning kitobxonlik madaniyatini jadal rivojlantirish, ularning intellektual salohiyati o'sishi hisobiga inson kapitali sifatini yaxshilash" masalalariga o'rin berilganligi ham bunga yaqqol misoldir.

Adabiyotlar tahlili. Maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga oid izlanishlar jahon pedagogikasi va psixologiyasi ilmda ko'plab o'rganilgan. Barkamol avlod tarbiyasi hamma davrlarda ham davlat va jamiyatning ustuvor masalalaridan biri bo'lib kelgan. Ushbu masala Sharq mutafakkirlari, O'rta osiyo allomalarining, zamonaviy pedagog olimlarning ham asarlarining bosh g'oyasi hisoblanadi.

Bugungi kunda yangi ta'lim tizimi faoliyatini takomillashtirish va barqarorlashtirish hamda fuqarolarning bilim olish huquqlarini ta'minlashda rivojlangan xorij davlatlarining tajribasi bilan bir vaqtda Sharqdagi mutafakkir ajdodlarimizning bebaho meroslaridan ham foydalanish taqozo etiladi.

Jamiyat, millatning rivojlanishi, taraqqiy etish tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, bilimli, ma'naviyatli va ma'rifatli yoshlarining jamiyat yuksalishida o'rni beqiyos. Bunday yoshlarni barkamol etib tarbiyalovchi asosiy omillardan biri mutolaa qilish vositasi kitob hisoblangan. Bizni yerdan ko'kka ko'taradigan, barkamollik sari yetaklaydigan, insonlar qalbiga yorug'lik va ilqlik kiritadigan, oq bilan qora, yaxshilik bilan yomonlik, vayronkorlik bilan bunyodkorlikning farqini ongli ravishda anglatishga yordam beradigan, insoniyat tomonidan yaratilgan eng noyob kashfiyot ham bu-kitobdir.

Mutaxassislar bola hayotining ilk yosh davrini "Mo'jizalar davri" deya nomlaganlar. Bu davrda bolalarga kitob o'qishga tayyorlanadi. Bunda avval nutq malakalarini, eshitish va so'zlashishni mukammal o'rganib olishlari lozim. Bolalarni kitobga bo'lgan qiziqishlarini shakllantirish jarayonini biz albatta oiladan boshlasak juda ijobiy natija berishi va undan keyin maktabgacha ta'lim tashkilotlarida oila bilan hamkorlikda davom ettirsak kutilgan natijaning yanada samarali bo'lishi mumkin.

Bolalarga yoshlikdan o'zbek xalq ertaklaridan so'zlab berish bolalarda mehnatsevarlik, samimiylik, mehmondo'stlik kabi insoniy fazilatlarni hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga nisbatan hurmat va ehtirom kabi tushunchalarni tarbiyalaydi. Bundan tashqari, buyuk allomalarimiz Alisher Navoiy, Forobiy, Abdulla Avloniy, Niyoziy, Yusuf Xos Xojib, Jaloliddin Rumiy kabi mutafakkirlarimiz bilan tanishtiramiz va ularning tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan fikrlar esa bola tarbiyasida asosiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar. Dunyoda XX asrgacha maktabgacha yoshdagi bolalar adabiyoti asosan folklor, ertak va rivojlantiruvchi (ensiklopediya yoki odob-axloq o'rgatuvchi) kitoblardan iborat edi. XXI asr bolalar adabiyoti rivojida haqiqiy yuksalish bo'ldi. Kichik yoshdagi bolalar uchun ham hikoya tarzidagi, ularning muammolari va savollarini aks ettirgan asarlar paydo bo'lib, ushbu yo'nalish shiddat bilan rivojlandi. Bolalarga quruq nasihat qiluvchi kitoblarning birortasi amaliy yordam berolmasligi neyrofiziologiya, neyropsixologiya, pedagogika va psixologiya ilmiy tadqiqotlarida aniqlandi va bolalar adabiyotini mutlaqo boshqa yondashuv, qarash bilan yozish kerakligi haqida ilmiy yo'nalishlar paydo bo'ldi. O'zbekistonda bolada tahliliy fikrlashni shakllantiradigan milliy bolalar kitoblari sanoqli. Dunyo miqyosida esa ularning adadi milliondan ko'p. O'zimizning mualliflar shunday kitob yozgunicha, xalqaro tajribadagisini tarjima qilib bo'lsa-da, amaliyotga kiritish kerak. Lekin o'z muallifi bo'lmagan mamlakatda chet el kitoblarini keskin ko'paytirish ham yaxshi natija bermaydi. Bolalarda tahliliy fikrlashni o'rgatuvchi kitoblarda javob emas, savol bo'lishi, nasihat emas, bola qalbida uyg'ona oladigan haqiqatlar bo'lishi kerak. Bolalarni tarbiyalash davlat, ahamiyatiga ega bo'lgan jarayondir, chunki unda jamiyatning barcha a'zolari ishtirok etadilar. Shuning uchun ham respublikamizda ushbu jarayonga katta ahamiyat berilmoqda. Zero, yoshlar bizning kelajagimiz, biz ularga qanchalik ko'p bilim va tarbiya bersak kelajagimiz shunchalik farovon, mamlakatimiz tinch va osoyishta bo'ladi. Bolalar xarakterida shakllanayotgan ilk tushuncha va hissiyotlarni o'z vaqtida ilg'ab olib ularning keyingi

amaliy faoliyatiga yordam berish har bir tarbiyachi va tarbiya muassasalarining birinchi navbatdagi vazifasidir.

Mamlakatimizda bola tarbiyasi bilan quyidagi ijtimoiy institutlar: oila, davlat tizimidagi ta'lim va tarbiya beruvchi tashkilotlar, madaniy – ma'rifiy tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari (matbuot, radio, televizor, kino) ularni o'rab turgan tashqi muhit, o'rtoqlari shug'ullanadi. Ayniqsa bolalarga atalgan vaqtli matbuot, bolalar va o'smirlar kitobi ularga ta'lim va tarbiya berishda juda katta o'rinni egallaydi, busiz haqiqiy insonni tarbiya beruvchi shaxs misolidir.

Bolalarga bilim va tarbiya beruvchi asosiy manbalardan biri kitobdir. Kitob o'qish uchun bo'lib ta'lim- tarbiya tashkilotlarida muntazam o'qish san'ati bilan tanishadilar. Tarbiyachi bolalarga tarbiya va bilim berishda asosiy manba bo'lgan matbuot va kitobdan keng foydalanadi.

Kitob kichikintoylar fikricha hamma narsani bor, hamma narsaga javob beruvchi vosita sifatida tan olinadi. Lekin shuni alohida ta'kidlash lozimki, kitob qanchalik qiziqarli, hissiyotlarga boy bo'lmasin, agar kitobxon qalbiga yetib bormasa, hayajon solmasa, bunday kitoblarning tarbiyaviy ta'siri ham bo'ladi.

Bolalarga atalgan kitoblarning maqsadi ularga tabiat ato etgan his- tuyg'ularni o'stirishdan iborat. Bunday kitoblarning bilvosita ta'siri bolalarning aqliga emas, balki ularning his- tuyg'ulariga qaratilmog'i kerak. His bilishdan oldin bo'ladi, haqiqatni sezmagani kishi uni tushunmaydi, bilmaydi ham...

Kattalarga oid bo'lgan nasalar bolalarga ham oiddir, faqat ularni bolalar tushunchasiga muvofiq suratda bayon qilmoq kerak, bu ishning eng muhim tomonlaridan biridir, degan edi. V.G.Belinskiy tarbiyaviy tizimda o'qishga rahbarlik qilishda xilma-xil yo'nalishlarda ish olib borilar ekan, tarbiyachi kitobxonni tarbiyalashda doimo yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib tarbiyaviy ta'sirini oshirishga harakat qiladi.

Tarbiyaviy tizimning muhim yo'nalishlaridan biri mehnat tarbiyasidir. Bolalar uchun yozilgan barcha kitoblar axloq va odob mavzusi bilan bog'liq. Ushbu yo'nalishdagi tarbiya umumiy tarbiya tizimining bir bo'lagi hisoblanadi va doimo boshqa tarbiyaviy yo'nalishlar bilan birga olib boriladi. Ayniqsa respublikamiz mutasaqillikka erishgan, yangi qadriyatlar vujudga kelayotgan, milliy istiqlol mafkurasi yaratilayotgan hozirgi davrda bu yo'nalishdagi tarbiyaning ahamiyati nihoyatda kattadir. Chunki biz yosh avlodni pok, vijdonli iymonlik, insofli, intizomli, halol odobli qilib tarbiyalashni o'z oldimizga maqsad qilib qo'yamiz.

Bu murakkab jarayonda kitob vositasida tarbiyalashga katta e'tibor berish zarur. Ayniqsa kichik yoshdagi bolalar o'ta ta'sirchan va hissiyotga beriladigan bo'ladilar. Bu yoshda kitoblarda yozilgan narsalar, kattalar tomonidan aytilgan nasihatlar tezda qabul qilinadi. Ular o'zlarinikidan ko'ra boshqalarning axloqiy tomonlariga qiliklariga qilgan ishlariga tezda baho beradilar. Ana shularni e'tiborga olib tarbiyachi suhbat, ovozi va ifodali o'qish, ertak aytib berish, so'zlab berish kabi tadbirlar, mashg'ulotlar orqali o'qilgan yoki aytilgan, ertaklar qahramonlarning xilma-xil xislatlarini, ularning o'zaro munosabatlarini, vaziyat va sharoitlarni tushuntirib berar ekan.

Shunday xislatlar bolalarning o'zlarida ham borligini aytib o'tadi. Masalan, bolalarning juda ko'pchilgida uchraydigan maqtanchoqlikning yomonligi va uni nimalarga olib kelishi haqida o'zbek xalq ertaklaridan "Maqtanchoq quyon"ni o'qib bersa, halollik, to'g'rillikning afzalligi haqidagi "Egri va to'g'ri" ertagini aytib beradi.

Do'stlik va ayyorlik haqida suhbatlashib, Gulxoniyning "Toshbaqa bilan chayon, "Bo'ri bilan Tulki" ertagini tushuntirib tulki bo'ridan bo'lganini va uni aldab qop-qonga tushurib ayyorlik qilib qochib ketganini aytib beradi. Shunday odamlar bizning ichimizda ham bo'lib, birov boylikka, birov qo'rqanidan, birov mansabga o'tirish uchun do'st bo'ladi va keyinchalik ular baribir aldab ketadi. Haqiqiy do'st yaxshi va yomon kunlarda ham do'st bo'lib qolaveradi, deb xulosa qiladi. Katta guruh yoshdagi kitobxonlar bilan ishlaganda tarbiyachi yoki kitobxonchi va kutubxonchi bog'cha hayoti bilan bog'liq bo'lgan asarlarga ko'proq e'tibor beradi.

Ma'lumki, maktabgacha ta'lim tashkilotida turli xil xislatlarga ega bo'lgan, ya'ni bebosh, beg'am, tanbeh, to'polonchi, intizmosiz bolalar ham o'qiydi. Bu bolalarning xulqi tufayli qanchadan-qancha oynalar, kitoblar, kiyimlar iflos bo'ladi.

Tarbiyachi katta guruhdagi bolalarga ya'ni bilimlarni bilishi va o'zlashtirishi lozim bo'lgan to'g'riso'lik, adolatlilik, halollik, saxiylik kabi xislatlarni kitobdan qiziqarli hikoya, ertaklardan ularning qalbiga singdirib berish lozim. Ushbu yo'nalishning xarakteri xususiyati shundaki, juda ko'p bolalar yuqoridagi aytilgan xislatlarning aksi o'zlarida ham mavjud ekanligini ularga

tushuntirib borish darkor.

Oilada tarbiyaning barcha mezonlari shakllantirilganidek, kitobxonlik madaniyati ham maskandan boshlansa yaxshi samara beradi. Chunki, "Qush uyasida ko'rganini qiladi", degan behudaga aytilmagan. Dunyoda XX asrgacha maktabgacha yoshdagi bolalar adabiyoti asosan folklor, ertak va rivojlantiruvchi (ensiklopediya yoki odob-axloq o'rgatuvchi) kitoblardan iborat edi. XXI asr bolalar adabiyoti rivojida haqiqiy yuksalish bo'ldi. Kichik yoshdagi bolalar uchun ham hikoya tarzidagi, ularning muammolari va savollarini aks ettirgan asarlar paydo bo'lib, ushbu yo'nalish shiddat bilan rivojlandi. Bolalarga quruq nasihat qiluvchi kitoblarning birortasi amaliy yordam berolmasligi neyrofiziologiya, neyropsixologiya, pedagogika va psixologiya ilmiy tadqiqotlarida aniqlandi va bolalar adabiyotini mutlaqo boshqa yondashuv, qarash bilan yozish kerakligi haqida ilmiy yo'nalishlar paydo bo'ldi. O'zbekistonda bolada tahliliy fikrlashni shakllantiradigan milliy bolalar kitoblari sanoqli. Dunyo miqyosida esa ularning soni milliondan ko'p. O'zimizning mualliflar shunday kitob yozgunicha, xalqaro tajribadagisini tarjima qilib bo'lsa-da, amaliyotga kiritish kerak. Lekin o'z muallifi bo'lmagan mamlakatda chet el kitoblari keskin ko'paytirish ham yaxshi natija bermaydi.

Bolalarda tahliliy fikrlashni o'rgatuvchi kitoblarda javob emas, savol bo'lishi, nasihat emas, bola qalbida uyg'ona oladigan haqiqatlar bo'lishi kerak.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, ta'lim oluvchilarda kitobxonlik, kitobni sevish kabi fazilatlarini shakllantirish masalalari g'oyat muhim muammolardan hisoblanib mazkur muammo xalq pedagogikasi, islomiy adabiyotlar, buyuk mutafakkirlarning ta'limotlarida aqliy tarbiya, bilim olish bilan bog'langan holda talqin etilgan. Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Yusuf Hos Hojib, Kaykovus, Ahmad Yugnakiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Zaxiriddin Muxammad Bobur keyinroq esa Abdurauf Fitrat va boshqalarning ta'limiy ahloqiy qarashlari kitob va uning ilm olishdagi fikrlari bunga yaqqol dalil bo'la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida" Qonun 2019-yil 22-oktyabr
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ 3305-son qarori. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari malumotlari milliy bazasi.
3. 2020 — 2025-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash milliy dasturini tasdiqlash to'g'risida. (*Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi*, 14.12.2020-y., 09/20/781/16)
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ 3305-son qarori. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari malumotlari milliy bazasi.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrdagi "2017-2021-yillarda Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PQ 2707-son qarori.
6. Sh.Mirziyoevning 2017 yil 15 iyunda "Ijtimoiy barqarorlikni taminlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash-davr talabi" mavzuidagi nutqi.
7. 2020-2025-yidagi kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash milliy dasturini tasdiqlash to'g'risida Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-dekabr 781-son qarori.
8. "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi VM-391-sonli Qarori. 13. 05. 2019.
9. Bola taraqqiyotini psixologik tashxis qilish (foydalanuvchiga ko'rsatma va kartochkalar majmui) .R.I.Sunnatova, N.G.Irgashova tahrirlari ostida-Moskva-Toshkent:ITD<<SMI-AZIYA>>--san'atjurnali,2008-156
10. D.B.Elkonin "Bolalar psixologiyasi" Ched. - m.: "Akademiyaning" nashriyot markazi, 2007 yil. - 384 p.
11. Inomova M. "Farzand – nihol, ota-ona - bog'bon". Toshkent, "O'qituvchi", 1983 y.
12. Loginova V.I., P.G.Samorukovalar tahriri ostida «Maktabgacha tarbiya pedagogikasi». «Tarbiyachi» T., 1991 y.